

GIYOHVANDLIKNING HOZIRGI KUNDA AHVOLI – JAMIYATGA SALBIY TA’SIRI

O’ktamboyev Xumoyunmirzo Avazbek o’g’li
O’z.Res. IIV Akademiyasi 3-kurs 303-guruh kursanti

Annotatsiya: *Giyohvandlik bu – ijtimoiy ildizlarga salbiy ta’sir ko’rsatadigan? Turli xil kasalliklarga ega ega bo’lgan va jamiyatni tanazzilga olib kelishga sabab bo’ladigan kasallikdir.*

Giyohvandlik bu- giyohvandlik moddalari iste’mol qilish bilan bog’liq sabablar va har qanday deviant xatti-harakatlar buzilishining umumiy nomi. Jamiyatimizda giyohvandlik moddalaridan asosan tibbiyotda keng foydalaniladi. Bizda giyohvandlik moddalari bilan og’riq qoldiruvchi moddalar orasida farq mavjud. Bunda Sog’liqni saqlash sohasida giyohvandlik vositalaridan foydalanish o’g’riq qoldiruvchi vosita sifatida foydalaniladi, ya’ni bemorlarni kuchli og’riqlardan xalos qiladirlar. Morfin, kodein, gidromorfon bu dori vositakarining ayrimlari hisoblanadi. Giyohvand moddalarga asab tizimining maxsus holatini keltirib chiqaruvchi moddalar kiradi. Ular orasida keng tarqalganlari – nasha, kokain, gashish va afyun shular jumlasidan.

Kalit so’zlar: *Giyohvandlik, zaharvandlik, xulq-atvor, gashish, morfin, kodein, gidromorfon, eyforiya, abstinent, abstinensiya, statsionar, morfinizm, heroinizm.*

Giyohvandlik, narkomaniya, bangilik — narkotik moddalarga o’rganibqolish, ruju qilish, aniqrog’i tabiiy yoki sintetik zaharli moddalar (ayrim dori moddalari)ni vaqtincha yoki surunkasiga iste’mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik holati. Giyohvandlik organizm somatik va ruhiy holatining chuqur o’zgarishiga sabab bo’ladi va giyohvandni tanazzulga olib boradi. Giyohvandlikda o’zini to’xtatib bo’lmaydigan darajada giyohvand moddalarni iste’mol qilish mayli paydo bo’ladi, giyohvand moddaning miqdoriga nisbatan ehtiyoj, ruhiy va jismoniy bog’liqlik ortib boradi. Giyohvandlik asta-sekin boshlanib, surunkali davom etadi. Giyohvand moddalar dastlab xushnudlik, dimog’chog’lik (qarang Eyforiya), xotirjamlik hissini uyg’otib, kayf qildiradi, keyin bora-bora bu kasallikka aylanadi. Giyohvandlik 2 zaylda avj olishi mumkin. Birinchi holda vrach buyurgan va bemorning ruhi hamda kayfiyatini oshirish xususiyatiga ega bo’lgan dorilarni uzoq vaqt va noto’g’ri qabul qilish; og’riq, uyqusizlik va boshqa dardlardan qutilish maqsadida dori miqdori (dozasi)ni oshirib borish; darddan tuzalib doriga unchalik ehtiyoj bo’lmasa ham, uni qabul qilaverish natijasida dorining narkotik ta’siri va miqdori orta borib, pirovardida giyohvand moddaga moyillik kuchayib, u humor qiladigan bo’lib qoladi. Ikkinchi hol ongli ravishda kayf qilish maqsadida giyohvand moddalarga o’rganishdir.

Giyohvandlikka, odatda, irodasi kuchsiz, o'zini tiya olmaydigan, o'tkir sezgilarni o'zida sinab ko'rishga qiziquvchan, ruhan zaif va o'ta xudbin kishilar beriluvchan bo'ladi. Yoshlar tarbiyasidagi nuqson va kamchiliklar, giyohvand moddalarni iste'mol qilib yuruvchi katta yoshdagilarga taqlid va havas, oiladagi noxush sharoit (ota-onaning ichkilikboz yoki giyohvand bo'lishi) hamda giyohvand moddalarning oson topilishi yoki qo'l ostida bo'lishi ham Giyohvandlikka sabab bo'lishi mumkin. Giyohvandlikka muhtalo bo'lganlarda xastalik borgan sari kuchaya borib, odatda, kutilmagan yomon oqibatlariga olib keladi. Giyohvandlik eyforiyasida, ya'ni kayfichog'likda 2 bosqich kuzatiladi: qisqa muddatli — 1-5 daqiqa davom etadigan o'tkir hissiyotli bosqich (haqiqiy eyforiya) va uzoq (1—3 soat) cho'ziladigan bo'shashish, tinchlanish davri. Bu bosqichlarning qisqa yoki uzoq bo'lishi qanday giyohvand modda qabul qilinganiga va miqdoriga bog'liq. Giyohvandning hamma turi ham o'z rivojida giyohvand moddalarga o'rganib qolish yo'li bilan Giyohvandlik sindromining shakllanishiga olib keladi. Bu sindromning rivojlanishida ham 3 bosqich farqlanadi: 1) giyohvand moddaga nisbatan organism reaktivligining o'zgarishi va ruhiy bog'lanishning paydo bo'lishi; 2) xumor (abstinent) sindromi ko'rinishida jismoniy bog'lanishning yuzaga kelishi; 3) organism barcha sistemalarining zaiflashishi (tolerantlikning pasayishi, ya'ni giyohvand moddalarning avvalgi miqdorini ko'tara olmaslik, xumorning surunkali davom etishi va ayrim hollarda polinarkomaniyaning vujudga kelishi). Giyohvandlikka muhtalo bo'lgan kishi giyohvand moddalarni qayta-qayta va ko'proq miqdorda iste'mol qila boshlaydi. Keyinchalik esa giyohvand moddalarsiz turolmaydigan bo'lib qoladi. Bunday ahvoldan qutilish va o'zini biroz yengil his qilish uchun yana giyohvand moddaga ruju qiladi va oxir-oqibat giyohvand moddalarga hirs qo'yish kelib chiqadi. Organizmning dastlabki himoya reflekslari (ko'ngil aynishi, qusish) yo'qoladi. Bu davrda organizmda giyohvand moddalarga nisbatan moyillik shu darajada kuchayib ketadiki, go'yo bu moddalar avvalgi ta'sir kuchini yo'qotgandek bo'lib qoladi, endi avvalgidek eyforiya (kayf) holatini his qilish, xumorni tarqatish uchun o'sha moddadan ko'proq miqdorda qabul qilgisi keladi. Oldiniga giyohvand modda birmuncha yoqimsiz ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, keyinchalik go'yoki uning holatini "normallashtirganga" o'xshaydi, bemor o'zini birmuncha yaxshi his qiladi, ishqobiliyati, ruhi go'yo tetiklashadi, pirovardida u haqiqiy giyohvand bo'lib qoladi. Giyohvandlarda avval ruhiy o'zgarishlar (tajanglik, kayfiyat buzqligi, xotira pasayishi) paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik jismoniy o'zgarishlar — jismoniy bog'lanib qolish sindromi (terlash, yurak urishi, og'iz qurishi, ozib ketish, qo'l-oyoqning titrashi va boshqalar) ro'y beradi. Agar giyohvand o'z vaqtida narkotik moddani qabul qilmasa, organizmda kuchli ruhiy va jismoniy o'zgarishlar, ya'ni giyohvandlikka xos og'ir holat — xumorlik (Abstinensiya) sindromi paydo bo'ladi. Giyohvandlik opiomaniya (afyun qabul qilish), morfinizm, heroinizm ko'rinishida bo'ladi. Giyohvandning nashavandlik, kokainizm, nikotinizm

(tamakiga ruju qilish), teizm (achchiq choy ichish) va boshqa turlari ham uchraydi. Ikki yoki undan ortiq xil giyohvand moddani surunkali qabul qilish — polinarkomaniya deyiladi. Giyohvandning hamma turida ham organizm zaharlanadi va u juda og‘ir kechadi.

Yer yuzining turli mintaqalarida Giyohvandlikning ayrim turlari kuzatiladi. Giyohvandlikning heroinizm turi keyingi vaqtda juda keng va fojiali tarzda tarqalib bormoqda. Giyohvandlik avj olishining oldini olish uchun ayrim mamlakatlarda tegishli tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan O‘z.Resda Giyohvandlikka qarshi kurash qo‘mitasi tashkil qilinib, davlat dasturi ishlab chiqilgan. Respublikada narkologiya markazi tashkil qilingan va bu markazda narkologiya bo‘yicha olim va mutaxassislar tomonidan malakali kadrlar tayyorlanib, ular mamlakat mintaqalarida Giyohvandlikka qarshi keskin kurash olib boradi. Giyohvandlikka muhtalo bo‘lgan bemorlar asosan shifoxona (statsionar) sharoitida 2—4 oygacha davolanib, 4—5 yilgacha ambulatoriya kuzatuv va hisobida bo‘ladilar.

Dunyo miqyosida so‘nggi 10 yil ichida giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchilar soni 23 foizga oshgan, ko‘rsatkich 2011-yildagi 240 milliondan 2021-yilda 296 million kishiga yetgan. Bu dunyo aholisining o‘sishi bilan qisman bog‘liq, xolos. Bu haqda BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi yangi hisobotida aytiladi.

Xuddi shu davrda giyohvand moddalarni iste‘mol qilish bilan bog‘liq kasalliklardan aziyat chekadiganlar soni 45 foizga o‘shib, 39,5 million kishini tashkil etdi. Shu bilan birga, BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, har 5 kishidan faqat 1 nafari giyohvand moddalarga qaramlikdan davo topish mumkin deb hisoblaydi.

Fentanil i metamfetamin kabi sintetik moddalar endi noqonuniy narkotik bozorlarida hukmronlik qilmoqda. Asosiy sabab ularning “arzon, oson va tez” ishlab chiqarilishidir. 2021-yilda Shimoliy Amerikada dozani oshirib yuborish bilan bog‘liq 90 mingga yaqin o‘lim holatining aksariyati fentanil bilan bog‘liq.

Kannabis eng ko‘p qo‘llanadigan narkotik vosita bo‘lib qolmoqda, 2021-yilda 219 million kishi (dunyodagi yoshi katta aholining 4,3 foizi) undan foydalanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan olingan yangi ma‘lumotlarga ko‘ra, 2021-yilda 13,2 million kishi giyohvand moddalarni in‘eksiya (dori va boshqa eritmalarni organizm to‘qimalari, tomirlarga kiritish) qilgan, bu avvalgi hisob-kitoblarga qaraganda 18 foizga ko‘p. 18 davlatdan olingan statistik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatdiki, erkaklar ayollarga qaraganda 5 baravar ko‘proq giyohvand moddalarni in‘eksiya qiladi va ularni sheriklariga tanishtiradi.

Mutaxassislar 2023-yilda Afg‘onistonda opiy hosili keskin kamayishini bashorat qilmoqda, bunga ushbu vositani yetishtirish taqiqlangani sabab bo‘lgan.

Biroq, hisobotda ta'kidlanganidek, bu sintetik narkotik ishlab chiqarishga o'tishga sabab bo'lishi mumkin, chunki Afg'oniston ham mintaqada metamfetaminlarning asosiy ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Giyohvandlik>
2. <https://lex.uz/ru/docs/-86044?ONDATE=29.01.2021>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/09/10/unodc/>
4. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risidagi qonun
19.08.1999 yil
813-1-son bilan qabul qilingan